




NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Namangan viloyatida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab Namangan viloyatida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

Namangan viloyatida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.


O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.



NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.




Hududlar kesimida akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshida)





NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

**Akademik litseylarda tahsil
olayotgan o'quvchilar soni**
(o'quv yili boshiga ming kishi)



**Akademik litsey o'quvchilarining hududlar bo'yicha
taqsimlanishi**
(2022/2023 o'quv yili boshida ming kishi)



Namangan viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida akademik litseylarda jami **2,1** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Asosan Namangan shahrida o'quvchilar tehsil olmoqda.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Qiz bolalar
42,6 %


Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning 42,6 % qizlar, 57,4% ini o'g'il bolalar tashkil etadi.

O'g'il
bolalar
57,4 %




**Akademik litsey o'quvchilarining
hududlar bo'yicha gender taqsimoti, %
(2021/2022 o'quv yili boshida)**

Namangan V



Namangan sh





■ Qiz bolalar ■ O'g'il bolalar

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Akademik litsey o'qituvchilari (o'quv yili boshida, kishi)

Hududlar bo'yicha


Namangan viloyati



2022- yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **56** nafarga yoki **34,3** foizga ko'paydi va **219** nafarni tashkil etdi.

 2021/2022- y.
 2022/2023- y.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Akademik litseylar o'qituvchilarining gender taqsimoti (2021/2022 o'quv yili boshiga)

Akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning **40,1** foizini ayollar, **58,9** foizini erkaklar tashkil etadi.


O'qituvchilarning hududlar bo'yicha gender taqsimoti, kishi





NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda* (2021/2022 o'quv yili boshiga)




2022/2023 o'quv yili boshida Namangan viloyatida 27 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Kosonsoy viloyatida (3 ta), eng kami — Chortoq (2 ta) qayd etilgan.

*shu jumladan madaniyat va san'at maktablaring qo'shgan holda

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarda tahsil olayotgan
o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi
(o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha
2022/2023 o'quv yili boshiga



Namangan viloyati



2022/2023 o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **16,3** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida – **2,0**ming nafar, eng kami Mingbuloq tumanida – **0,8** ming nafar.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Qiz bolalar
22,5 %

Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar 100 foiz deb olinsa, ularning 22,5 foizini qizlar, 77,5 foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.

O'g'il
bolalar
77,5 %




Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining hududlar bo'yicha gender taqsimoti, % da (2021/2022 o'quv yili boshida)



NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)




2022- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **75** nafarga yoki **1,073** barobarga ko'payib, **1091** nafarni tashkil etdi.

Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Kosonsoy tumanida – **129** nafar, eng kami – Uchqo'rg'on tumanida – **60** kishi qayd etilgan.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Kollejlar soni, birlikda
(o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Namangan viloyati




2021/2022 o'quv yili boshida Namangan viloyatida **18** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Namangan shahrida (2 birlik), eng kami Chortoq tumanida (1 birlik) qayd etilgan.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



■ 2022/2023 ■ 2021/2022

Namangan viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida Namangan viloyatidagi **18** ta kollejda **7,7** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Chust tumanida (**1,4** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Chortoq tumanida (**0,1** ming kishi) qayd etilgan.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023


Namangan viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida kollejlarda **284** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan (2022- yilda – **94** nafar) 24,8 kamaygan.

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikumlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)



Namangan viloyati




Namangan viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlar soni **19** tani tashkil etdi, 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan o'zgarmagan.




NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Namangan viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida Namangan viloyatidagi texnikumlarda **8,3** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida (**2,6 ming**), eng past ko'rsatkich Mingbuloq (**0,2 ming**) qayd etilgan.).

NAMANGAN VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

Hududlar bo'yicha



■ 2022/2023 ■ 2021/2022

Namangan viloyati



2022/2023 o'quv yili boshida texnikumlarda **356** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**124** nafar) nisbatan **25,8%** ga kamaygan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Namangan shahrida – **93** nafar, eng kami – Yangi Namangan tumanida – **6** nafar qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va Namangan viloyatining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.